

RASMIY MULOQOTDA “MIGHT” MODAL FE’LINING VAQTGA OID EHTIMOLLIKNI IFODALOVCHI SEMANTIK - PRAGMATIK JIHATLARI

Radjapova Nafisa Muminjonovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti o’qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18091736>

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi “might” modal fe’lining rasmiy muloqotda hozirgi zamon ehtimoli, kelasi zamon ehtimoli va o’tgan zamon ehtimolini ifodalashdagi semantik-pragmatik funksiyalari tahlil qilinadi. Tahlilda ushbu modal fe’lning har bir zamondagi ishlatilish holatlari rasmiy muloqotdan olingan misollar orqali ochib berilgan. “Might” fe’lining noaniq ehtimollikni ifodalovchi, muloyim va ehtiyotkor yondashuvni ta’minlovchi vosita sifatida rasmiy nutqdagi kommunikativ rolga alohida e’tibor qaratiladi. Tahlil natijasida “might” modal fe’li semantik jihatdan ehtimollik darajasini, pragmatik jihatdan esa xabar beruvchining pozitsiyasi, mas’uliyati va kommunikativ maqsadini ifodalashdagi muhim til vositasi ekanligi ko’rsatib beriladi.

Kalit so’zlar. Modal fe’l, ehtimol, hozirgi zamon, kelasi zamon, o’tgan zamon, rasmiy muloqot, pragmatika, semantika

Аннотация. В данной статье рассматриваются семантические и прагматические функции модального глагола might в контексте официального общения. Особое внимание уделяется его употреблению для выражения вероятности в настоящем, будущем и прошедшем времени. Каждое значение иллюстрируется подлинными примерами. Установлено, что модальный глагол might служит средством выражения слабо выраженной вероятности, осторожности и профессиональной неопределенности в формальном дискурсе. Анализ показывает, что might выполняет важную коммуникативную функцию, передавая эпистемологическую позицию говорящего и обеспечивая вежливое и ненавязчивое общение. Таким образом, might демонстрирует значительную семантическую гибкость и прагматическую ценность в лингвистических исследованиях и дискурсивном анализе.

Ключевые слова. Модальный глагол, вероятность, настоящее время, будущее время, прошедшее время, официальное общение, прагматика, семантика.

Annotation. This article analyzes the semantic and pragmatic functions of the modal verb might in the context of formal communication, focusing on its use to express present, future, and past possibility. Each temporal meaning is illustrated through authentic examples. The modal might is shown to serve as a linguistic tool for expressing low-probability judgments, caution, and professional uncertainty in formal discourse. The analysis reveals that might plays a crucial role in indicating the speaker's epistemic stance and communicative intent, enabling polite, non-committal, and strategically ambiguous communication. As a result, might exhibits significant semantic flexibility and pragmatic value in linguistic and discourse analysis.

Key words. Modal verb, possibility, present tense, future tense, past tense, formal communication, pragmatics, semantics.

Ingliz tilidagi modal fe’llar, ayniqsa “might” fe’li, turli zamon shakllarida ehtimol, taxmin va noaniqlikni ifodalash orqali rasmiy muloqot diskursida muhim semantik va pragmatik yuklamaga ega bo’ladi. “Might” modal fe’li rasmiy nutqda past darajadagi ehtimolni bildiruvchi vosita bo’lib, u hozirgi holatga oid noaniq taxminlar, kelajakdagi ehtimoliy voqealar yoki o’tgan

zamondagi afsuslantiruvchi ehtimollarni ifodalash uchun ishlatiladi. Shu bois, ushbu modal fe'lining turli zamon kontekstlarida qanday semantik va pragmatik funksiyalarni bajarishi tahlil etilishi tilshunoslik va ayniqsa, kommunikativ tilshunoslik uchun dolzarbdir.

Mazkur maqolada “might” fe'lining uch zamonda (present possibility, future possibility, past possibility) ¹ qanday ishlatilishi, uning rasmiy diskursdagi kommunikativ ahamiyati misollar bilan tahlil qilinadi va semantik-pragmatik moslashuvchanligi yoritiladi.

1. Hozirgi zamon ehtimoli (Present Possibility) *“The current economic indicators suggest that inflation might stabilize within the next quarter.”* Jumlaning semantik tahliliga ko'ra, “might” modal fe'li bu kontekstda hozirgi zamonda mavjud bo'lgan, ammo aniq tasdiqlanmagan ehtimolni (inflatsiyaning barqarorlashishi iqtisodiy ko'rsatkichlarga asoslangan taxmin) taqdim etadi, lekin bu holatning ro'y berishi past darajadagi ishonch bilan bog'liq, ya'ni bunda ko'proq subyektiv taxmin yoki noaniqlik (rasmiy kontekstlarda ehtiyotkor prognozni) aks ettiriladi. Jumlaning pragmatik tahlili esa, iqtisodiy tahlilchining ehtiyotkor munosabatini ko'rsatib, tinglovchiga (masalan, siyosatchilar, investorlar) inflatsiyaning barqarorlashishi ehtimolini hisobga olishni taklif qiladi, lekin qat'iy xulosa chiqarishdan qochadi. Pragmatik jihatdan, “might” rasmiy muloqotda muloyimlik va professional noaniqlikni saqlash uchun ishlatiladi, bu esa tahlilchining obro'sini himoya qiladi va noto'g'ri prognozlar uchun javobgarlikni kamaytiradi.

2. Kelasi zamon ehtimoli (Future possibility) *Jorginho might return this season after lung injury.*² Might modal fe'li past darajadagi ehtimolni bildirishda keng qo'llaniladi. Semantik nuqtai nazardan, ushbu jumlada “might” fe'lining kelasi zamon ehtimoli (future possibility) funksiyasi sport jurnalistikasi kontekstda qo'llanilgan bo'lib, joriy sport mavsumi doirasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan, ammo aniq tasdiqlanmagan ehtimolni ifodalagan. Jumlada futbolchi Jorginhoning o'pka jarohatidan so'ng o'yinga qaytishi ehtimoli muhokama qilinadi. “Might” modal vositasining ishlatilishi bu voqeaning ro'y berishi past darajadagi ishonch bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi, chunki qaytish imkoniyati turli omillarga, masalan, tibbiy holat, reabilitatsiya jarayoni yoki jamoa strategiyasiga bog'liq. Pragmatik jihatdan, “might” rasmiy muloqot kontekstlarida ehtiyotkor va professional yondashuvni ta'minlaydi. Jumla sport muxlislari, jurnalistlar, jamoa rahbariyatiga mo'ljallangan bo'lib, o'yinchining qaytish ehtimoli haqida ma'lumot berishni maqsad qilgan. “Might”ning ishlatilishi qat'iy va'da berishdan cheklanib, xabarni taqdim etuvchi (masalan, jurnalist yoki klub vakili) uchun javobgarlikni cheklaydi, noaniq tibbiy yoki sport sharoitlarida xavfsiz taxminiy axborot berish imkonini beradi.

3. O'tgan Zamon Ehtimoli (Past Possibility) *Dad says HPV vaccine might have saved daughter.*³ “Might have + past participle” konstruksiyasi, o'tgan zamonda ilinishi kerak bo'lgan lekin amalga oshirilmagan ish harakatga nisbatan afsuslanish ma'nosida aytilgan fikrni ifodalaydi. Might modal vositasi aniq tasdiqlanmagan voqealarni muhokama qilishda keng qo'llanilib, ushbu jumla sog'liqni saqlash diskursi kontekstidan olingan. Jumlada ota-onaning (otaning) agar qizi o'z vaqtida HPV (Human Papillomavirus) vaksinasi bilan emlanganda uning hayotini saqlab qolinishi mumkinligi haqidagi taxmini muhokama qilinadi. Semantik tahlillarga asosan, “might have” past darajadagi ehtimollikni bildirib taxminiy xarakterga ega. “Saved” fe'li

¹ https://www.teflconcourse.com/training/in-service/modality/types_of_modality.html

² <https://www.bbc.com/sport/football/articles/cn057vz4pz2o>

³ <https://www.bbc.com/news/articles/c4g3w6nkyk4o>

hayotni saqlab qolish kabi ijobiy natijani anglatadi, lekin “might” bu natijaning amalga oshmaganligini yoki noaniq ekanligini ko’rsatadi. Konstruksiya o’tgan zamonada sodir bo’lishi mumkin bo’lgan voqea senariysini tasavvur qilish uchun ishlatiladi, bu esa kontekstda emotsional va muhokamaga boy ma’no kasb etadi. Pragmatik jihatdan, “might have” konstruksiyasi sog’liqni saqlash bo’yicha jamoatchilik muhokamalarida yoki ommaviy axborot vositalarida ehtiyotkor va emotsional ta’sirli xabarni yetkazish uchun ishlatiladi. Jumla otaning shaxsiy tajribasi yoki fikri sifatida taqdim etilib, tinglovchilar (ommaviy axborot vositalari o’quvchilari, sog’liqni saqlash bo’yicha mutaxassislar yoki jamoatchilik) uchun HPV vaksinasining ahamiyati haqida o’ylashga undaydi. “Might have”ning ishlatilishi qat’iy xulosalardan qochadi, bu esa xabarni taqdim etuvchi (jurnalist yoki ota) uchun dalilsiz da’volardan saqlanish imkonini beradi.

Xulosa o’rnida aytish joizki, “might” modal fe’lining hozirgi, kelasi va o’tgan zamonlarda ehtimol ma’nosini ifodalashi uning semantik va pragmatik moslashuvchanligini ko’rsatadi. Semantik jihatdan, “might” past darajadagi ehtimolni bildiradi va real vaqt, kelajakdagi taxmin yoki o’tmishda sodir bo’lmagan voqealarga nisbatan ehtimol ma’nosida ishlatiladi. Pragmatik nuqtayi nazardan, ushbu modal fe’l rasmiy muloqotda muloyimlik, ehtiyotkorlik va taxminiylilikni ifodalab, rasmiy diskursda muhim kommunikativ vazifani bajaradi. Bu xususiyatlar “might” modal fe’lining tilshunoslikdagi ahamiyati va rasmiy diskursdagi funksional imkoniyatlarini kengaytiradi hamda uning sintaktik vazifasida murakkablik hosil bo’lishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, modallik turli zamonlarda ham namoyon bo’lishi mumkin bo’lib, rasmiy muloqotda nutqning aniq va maqsadli bo’lishi, shuningdek, so’zlovchining munosabatini ravshan ifodalashi uchun zarur vosita hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Бондарко, А. В. Теория функциональной грамматики. Темпоральность. Модальность. – Л.: Наука, 1990. – 80 с.
2. Palmer, F. R. Modality and The English Modal. The USA: Longman.1990. – 220 p.
3. Palmer, F. R. Mood and Modality. Cambridge: Cambridge University Press. 1st edition. 2001. – 236 p.
4. Radjapova N.M. The category of modality: objective and subjective modality// Western European Journal of Linguistics and Education. Vol. 2, Issue 8. ISSN (E): 2942-190X. Open access/ Peer Reviewed. ResearchBib IF: 9.765. – Berlin, Germany. August, 2024. P. 30-34.
5. Radjapova N.M. Modal category and modality units// Electronic Journal of Actual Problems of Modern Science, Education And Training. – Urganch. UrDU elektron jurnali. ISSN 2181-9750. AUGUST 8/2, 2021. B. 41-44.
6. <https://www.teflconcourse.com>
7. <https://www.bbc.com>